



HOZIRGI KUNDA XALQ PEDAGOGIKASINI O'RGANISHGA BO'LGAN SHART-SHAROITLAR

Inogamjonova Ziyoda Shuxratovna

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

Pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 - bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada xalq pedagogikasining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, uning dolzarbliji va hozirgi kunda xalq pedagogikasini fan sifatida o'qitish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, aynan nima uchun o'qitilishi kerakligi sabablari bilan birgalikda, xalq pedagogikasini vazifa va maqsadlari to'liq yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, xalq pedagogikasi, o'zbek xalq ijodi, rag'batlantirish, tarbiya, ma'naviy meros.

ABSTRACT: In this article, the importance of folk pedagogy in youth education, its relevance, the conditions created for the teaching of folk pedagogy as a science, the reasons why it should be taught, and the tasks and goals of folk pedagogy are fully explained.

Key words: pedagogy, folk pedagogy, Uzbek folk art, encouragement, education, spiritual heritage.

АННОТАЦИЯ: В данной статье всесторонне раскрываются значение народной педагогики в воспитании молодежи, ее актуальность, условия, созданные для преподавания народной педагогики как науки, причины, по которым ее необходимо преподавать, а также задачи и цели народной педагогики.

Ключевые слова: педагогика, народная педагогика, узбекское народное искусство, поощрение, образование, духовное наследие.

KIRISH

Hozirgi kunda har bir ta'lim muassasi o'quv dasturiga xalq pedagogikasini kiritish, yoshlarga ma'naviy ozuqa berish va ularni xalqimizning olis ijodi bilan



tanishdirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ya'ni aynan xalq pedagogikasini yoshlar tarbiyasidagi chuqur ahamiyatini sezgan va his qilgan holda uni o'qitishni keng targ'ib qilish uchun bir qator shart -sharoitlar yaratilmoqda. Nafaqat pedagogika sohasida bo'lган talabalar, balki boshqa sohadagi oliy ta'lim muassasida tahsil olayotgan har bir shaxs xalqimizning uzoq o'tmishi, ularning ma'naviy boyligi bilan yana bir bor tanishib, ushbu fanni o'rganib chiqishlari maqsadga muvofiq. Shu sababli ham barcha o'quv dasturlariga aynan mana shu fanni kiritish va uni keng targ'ib qilish orqali o'quvchi yoshlarga estetik zavq berish, ularni ma'naviy olamini yanada kengaytirish oldimizdagi bosh maqsadlardan biridir. Zero, ma'naviy qashshoq odam hech qachon boy bo'la olmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganlaridek: «Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talabi bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda». Bu esa bizdan boy ma'rifiy merosimizning bebaho manbalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanishimizni taqozo etadi. I.A.Karimov o'z asarlarida ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarning ahamiyati haqida ham alohida fikr bildirib: «Xalqimiz tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir hazina, bu hazinadan oqilona foydalanishimiz lozim», - deydi.

Insoniyat tarixining har bir bosqichida rivojlanish yo'nalishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning metodologik birligi qonuniyati asosida belgilangan. Ushbu qonuniyat jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar, g'oyalar va ideallar asosida ijtimoiy ong shakllari bo'lган fan, san'at, madaniyat, ishlab chiqarish va turmush tarzi rivojlanishiga omil bo'lган. Shu tariqa tarixiy taraqqiyot davomida barkamol shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish yuzasidan to'plangan boy ma'naviy meroslar xalq pedagogikasida o'z ifodasini topib borgan. Demak, bo'lg'usi



pedagog kadrlarni tayyorlashda aynan shu ma'naviy meros - xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid asosiy g'oyalari bilan tanishtirish orqali ularda pedagogik faoliyatda samarali foydalanishga zamin tayyorlaydigan bilim, ko'nikma va malakalami egallahshlariga asosiy e'tiborni qaratishimiz zarurdir. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy- ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlandi, tarbiya g'oyalari turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini o'zida mujassamlashtirdi. Xalqimiz yaratgan ana shu ma'rifiy fikr va g'oyalar, ta'lim- tarbiyaga oid boy meros minglab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi. Demak, ajdodlarimiz merosi bo'lgan xalq pedagogikasini xalq donishmandligi va odobnomasining nodir sohasi deyilishi bejiz emas. Xalq pedagogikasi asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rinn tutgan. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy- axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Xalq pedagogikasining muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo'Mgan xususiyatlarning saqlanishini ta'minlash sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, xalq pedagogikasidagi pedagogik qarashlar, allomalarimiz tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'qituvchining insoniy fazilatlari va kasbiy tayyorgarligi xaqidagi bildirilgan fikrlar hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Xalqimiz pedagogik qarashlarining tahlili bu borada juda boy ma'naviy - ma'rifiy meros mavjudligini ko'rsatadi. Demak, bo'lg'usi pedagogik kadrlami xalqimizning ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plagan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik qarashlari bilan tanishtirish ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Barkamol shaxsga xos bo'lgan fazilatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo'yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari mavjud bo'lib bularga namuna ko'rsatish, o'git-nasixat, rag'batlantirish va qoralash, ma'qullash va maqtash kabilalar kiradi. Tarbiya metodlari ichida eng ko'p qo'llaniladigan turi bu namuna, ibrat ko'rsatish,



ya'ni o'rnak bo'lishdir. Buni ikki xil yo`nalishda amalga oshirish mumkin. Birinchisi, yaxshi fazilatga ega kishilarning ibratli jihatlarini ko'rsatish orqali undan o'rnak olshiga undalsa, ikkinchisi salbiy axloqli kishilarning nojo'ya ishlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga o'rgatiladi. Chunki bola barcha yaxshi fazilatlarni ham, yomon illatlarni ham eng avvalo oilada o'rganadi, zero xalqimiz «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytishmagan.

Xalqimiz tarbiyaning turli metod va shakllarini amalga oshirishda xilmaxil tarbiya vositalaridan foydalangalar. Xalq pedagogikasida bola tarbiyalash an'analarida o'yin bolalarning bo'sh vaqtini o'tkazishi uchun ermak emas, balki ularni tarbiyalashning asosiy yo`nalishlari qatoriga kirgizilgan. Bunda bolalarni amaliy o'ylashga tarbiyalash, zukkolikga o'rgatish, narsa va hodisalarni taqqoslash orqali bir-biridan farqini bilish kabi aqlni takomillashtiruvchi uslublar keng o'rinn olgan.

XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki har qanday davlatning istiqboli yetuk ma'naviyatli, o'zida mukammal tarbiyaviy sifatlarni mujassamlashtirgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga bog'liqdir. Bu jarayonning samaradorligi bevosita tarbiya metodlari, usullari va vositalarinig o'rinali hamda samarali foydalanish jarayoniga bog'liq holda amalga oshadi. Xalq pedagogikasidagi tarbiya metodlari nihoyatda xilma-xil va rang-barang bo'lib, bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.



3. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.